

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH (METODIK TAVSIA)

Matkasimova Saida Alimovna

Andijon shahar 17 - umumiy orta ta'lim

maktabi 1- toifali texnologiya fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu metodik tavsiada texnologiya darslarida interfaol metodlardan samarali foydalanish, shu jumladan grafikli organayzerlar “Klaster”, “Venn diagrammasi” misolida mavzularni qiziqarli tashkillashtirish haqida metodik tavsialar berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, interfaol metodlar, “Venn diagrammasi”, ta'lim, o'quvchilar, metod, texnologiya, Grafikli organayzerlar, “Klaster”.

Аннотация: В данной методической рекомендации даны методические рекомендации по эффективному использованию интерактивных методов на уроках технологии, в том числе интересная организация тем с использованием графических органайзеров, таких как «Кластер» и «Диаграмма Венна».

Ключевые слова: технология, интерактивные методы, «Диаграмма Венна», образование, студенты, метод, технология, Графические органайзеры, «Кластер».

Abstract: This methodological recommendation provides methodological recommendations on the effective use of interactive methods in technology lessons, including the use of graphic organizers “Cluster”, “Venn diagram” for organizing topics in an interesting way.

Keywords: technology, interactive methods, “Venn diagram”, education, students, method, technology, Graphic organizers, “Cluster”.

KIRISH

Texnologiya darslarining muhim ahamiyati shundaki, o'quvchilarning ijodkorlik, yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga ko'maklashadi, ularning tafakkurlarini rivojlantirib, o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda qo'llay olish layoqatini

shakllantiradi. Texnologiya fani darslarining asosiy qismini amaliy mashg'ulotlar tashkil qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda nazariy mashg'ulotlarda olingan bilimlarni amalda, hayotiy tajribalar asosida mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilar ijodiy ishlaydilar, yangi g'oya va fikrlar asosida o'zlariga ishonch, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash sifatleri tarkib topadi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kasbga yo'llovchi maqsadlarni singdiramiz.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor bo'lishi kerakligini anglashi lozim. U o'z o'quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi o'rgangan bo'lishi lozim.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimni nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

Bu borada o'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik vositalar ta'kidlovchi savollar bunda o'quvchining bergan savoliga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O'qituvchi alternativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singan xususiyatiami rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda, fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham uzviy bog'liqdir. O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlashi –bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha

muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o'quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar obyektiv voqelikka oid bilimlarmi chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish "o'qituvchining innovatsion faoliyati" tushunchasi paydo bo'ldi.


Texnologiya fanidan darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda grafikli organayzerlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni darslarda faol ishtirok etishini, ta'lim mazmuniga oid o'rganilayotgan tushunchalarni, murakkablik darajalari turlicha bo'lgan mavzularni, fanlararo amalga oshirilayotgan aloqadorlik va o'zaro bog'liqlik o'rnatishni, tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash, topshiriqli muammolarni aniqlash, ularni hal etish va berilgan amaliy topshiriqlarni rejalashtirish, tafakkur qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Texnologiya fanidan darslarda grafikli organayzerlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, mavzuga oid ma'lumotlarni og'zaki ravishda o'zlashtirish ko'rsatkichi 10% bo'lgan sharoitda dars o'tish samarasiz bo'ladi. Darslar davomida o'quvchilarga o'quv materialini ko'rgazmali shaklda taqdim etish lozim. O'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish orqali o'qitish samaradorligi natijaviyligiga erishish mumkin. Grafikli organayzerlardan "Tikuvchilik materialshunosligi" darslarida qo'llanilishini "Tabiiy tolalar" mavzusida ko'rib chiqamiz:

1. Tabiiy tola turlarini klasterda tasvirlang.

Klaster - (tutam, bog,,lam) - axborot xaritasini tuzish yo'li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida

g'oyalarni yig'ish.



Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi

Klaster interfaol metodi - ta'lim oluvchini mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga asoslangan. Fikrlashning tarmoqlanishi pedagogik strategiya bo'lib, u ta'lim oluvchilarning bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va aniq ravishda ma'lum ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlanishlariga o'rgatadi. Mazkur interfaol metod bir mavzuni chuqur o'rganishdan avval ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda ta'lim oluvchilarning ushbu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

“Klaster” metodi yordamida o’zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash quyidagicha amalga oshiriladi:

✓ Ta’lim oluvchilar guruhlariga bo’linadilar va ularga belgilangan vaqt ichida mavzu bo’yicha qanday tushunchalarni o’zlashtirgan bo’lsalar, ularni qog’ozga yozish vazifasi topshiriladi.

✓ Vazifani bajarish jarayonida fikrlarning to’g’ri yoki noto’g’riligiga ahamiyat bermaslik, nimani o’ylagan bo’lsa, shuni yozib berish talab etiladi.

✓ Yozuvning texnik (orfografik, mantiqiy va h.k.) jihatlariga e’tibor berilmaydi. Fikrlar tugagandan keyin guruh a’zolari tushunchalarni mantiqiy jihatdan bir-birlariga bog’lab chiqadilar.

Venn diagrammasi - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo’yish uchun faoliyatni tashkil etish jarayonida qo’llaniladi.


Diagrammani tuzish uch bosqichni o’z ichiga oladi.

1-bosqich: O’quvchilar ushbu diagrammani tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi.

2-bosqich: Yakka, juftlikda yoki guruh ichida diagramma asosida taqqoslash faoliyati tashkil etiladi.

3-bosqich: Faoliyat natijalari tahlil qilinadi va baholanadi.

“Venn” diagrammasini tuzish uchun ikkita kesishuvchi aylana chiziladi (agar mavzuning ikki qismi solishtirilayotgan bo’lsa ikkita aylana, uchta qismi solishtirilayotgan bo’lsa uchta kesishuvchi aylana chiziladi).



Har bir aylanaga mavzuning alohida bir qismi haqidagi asosiy ma'lumotlar kiritiladi. Doiralarning kesishuvchi joyida, ikki yoki uch doiralardagi mavzular solishtiriladi va umumiy bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati yoziladi.

Kichik guruhlar o'z diagrammalarini tuzib bo'lgach, yagona guruhga birlashib, diagrammalarni o'zaro taqqoslaydilar. O'quvchilar bir-birlarining diagrammalaridan qo'shimcha ma'lumotlar oladilar, barcha uchun umumiy bo'lgan grafik organayzerga hamma ma'lumotlarni kiritib fikrlarni to'ldiradilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ta'lim tizimining eng dolzarb fanlaridan biri bo'lgan texnologiya fani darslarida interfaol usullarni qo'llash o'quvchilarda bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Shuningdek, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirib, kasbiy sifatlar hamda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhidova, O. N. Methods and tools used in the teaching of technology to children // ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), (2020), 957-960.
2. О.Н. Мухидова Компетентностный подход к развитию

профессиональной деятельности учителя // Вестник науки и образования 97 (№ 19 (97).Часть 2), С 88-91.

3. О.Н. Мухидова Электронное обучение в высшем образовании // Вестникмагистратуры, 1-5 (100) 2020 С 43-44.

4. Rasulova Z.D. (2014). On the spectrum of a three-particle model operator. Journal of Mathematical Sciences: Advances and Applications, 25, pp. 57- 61.

5. Расулова З.Д. (2021). Технологии развития творческих качеств студентов. Наука и образования сегодня. 60:1, С. 34-37.